



Abdujalilova E'zoza Botir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 10-sinf adabiyot darsligida Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini o'rgatish jarayonini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Muallif Yassaviy shaxsining XII asr turkiy adabiyoti va tasavvufiy tafakkur tarixidagi o'rni, uning "Devoni hikmat" asarining ma'naviy-axloqiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolada o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar – aqliy hujum, klaster, assotsiatsiya, rolli o'yin, matematik lotto hamda klassik juftliklar metodining qo'llanish jarayoni yoritilgan. Keltirilgan usullar orqali o'quvchilarni faollashtirish, mavzuni chuqur anglatish va Yassaviy hikmatlarining zamonaviy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, Devoni hikmat, tasavvuf adabiyoti, interfaol metodlar, aqliy hujum, klaster, rolli o'yin, assotsiatsiya metodi, matematik lotto, 10-sinf adabiyot darsligi.

Annotation: This article discusses effective methods for teaching the life and work of Ahmad Yassawi in the 10th-grade Uzbek literature curriculum. The author highlights Yassawi's significance as a leading figure of 12th-century Turkic literature and a founder of Sufi thought, emphasizing the moral, spiritual, and educational value of his "Divan-i Hikmat." The article presents a range of interactive teaching strategies—including brainstorming, clustering, associative mapping, role-play, mathematical lotto, and classical pairing—to enhance student engagement and comprehension. These methods help learners understand Yassawi's hikmats more deeply and apply their moral lessons to modern life.

Keywords: Ahmad Yassawi, Divan-i Hikmat, Sufi literature, interactive teaching methods, brainstorming, cluster method, role-play, association method, mathematical lotto, medieval literature.

KIRISH

Ahmad Yassaviy – XII asr turkiy adabiyotining buyuk namoyondasi, tassavvufiy adabiyotning asoschisi sifatida o'zbek adabiyoti tarixida muhim ahamiyatga ega shaxsdir. Uning "Devoni hikmat" asari turkiy tilda yozilgan ilk didaktik-tasavvufiy asar bo'lib, u nafaqat diniy, balki axloqiy, falsafiy, ijtimoiy g'oyalarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatish ularning ongiga to'g'ri yetkazib berish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim vazirligi qarori bilan nashr etilgan 10-sinf adabiyot darsligida "O'zbek adabiyoti tarixi: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha" mavzusida O'rxun-Enasoy yozuvi, To'nyuquq bitiktoshidan boshlab Imom Buxoriy "Al-jomi as-sahih"i, Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otit turk" asari, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"i, Ahmad Yugnakiy "Hibbat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" asarlari haqida ma'lumotlar va asarlaridan na'munalar beriladi. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini o'rganish jarayonida o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.



Mazkur maqsadga erishishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. 10-sinf adabiyot darsligida keltirilgan "O'zbek adabiyoti tarixi: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha" mavzusidagi Ahmad Yassaviyni o'rgatishda: aqliy hujum, assotsiatsiyalar metodi, matematik loto, klassik juftlik metodi, klaster, rolli o'yin metodlardan foydalanish mumkin.

Asosiy qism

Aqliy hujum metodi – o'quvchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi[2.13]. Darsda o'quvchilar diqqatini jalb qilishda katta yordam beradi. O'quvchilar tengdoshlari fikrini eshitib, analiz qilishadi. Bu metodni hamma darsda istalgan vaqtida ishlatish bo'ladi. O'quvchilarga mavzuga doir savol berasiz. Savolni to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi. Hamma birin-ketin javob bera boshlaydi va faollik kuchayadi.

Qo'llaniladigan bosqich: Darsning kirish qismida.

Metodning mohiyati: O'quvchilarga "Ahmad Yassaviy deganda sizning xayolingizga nimalar keladi?" savoli beriladi. Ular bergan javoblari kalit so'z sifatida doskaga yoziladi va dars davomida foydalanilib mavzu tushuntiriladi.

Klaster metodi – puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klaster ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi[3.35].

Qo'llash bosqichi: asosiy qismning yakunida yoki mustahkamlash bosqichida.

Amalga oshirish jarayoni: Doskaga "Ahmad Yassaviy hikmatlarida ifodalangan asosiy g'oyalar" degan markaziy so'z yoziladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib asosiy tushunchalarni joylashtiradilar: sabr, halollik, ilm, toat-ibodat, nafs bilan kurash, insonparvarlik, muhabbat, komillik kabi.

Rolli o'yin metodi – "Bola xotirasida nimaninir o'rnashib qolishini istagan pedagog imkoni boricha ko'proq sezgi organlari : ko'z, quloq, tovush, muskul harakatlari tuyg'usi, hatto, mumkin bo'lsa, hidlash va ta'm bilish ham eslab qolishda ishtirok etishi haqida qayg'urishi kerak", - deydi Boqijon To'xliiev[1.137]. Xuddi shunday bu metodda o'quvchilar eshitish, ko'rish, muskul harakatlari tuyg'usidan foydalanganliklari uchun yaxshi samara beradi. O'quvchilarda ijodkorlikni, hissiy tafakkurni, nutq madaniyatini rivojlantiradi.

Qo'llash bosqichi: mustahkamlashda.

Amalga oshirish jarayoni: O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, "Ahmad Yassaviy va uning shogirdlari majlisida" yoki "Hikmat aytish marosimi" kabi sahnani jonlantirishi mumkin. Bir o'quvchi Ahmad Yassaviy rolida hikmat aytadi boshqasi uni tahlil qiladi, savollar beradi yoki Ahmad Yassaviy hayotiga oid bo'lgan rivoyatlarni o'qituvchi tayyorlab olib keladi o'quvchilar ular asosida rol ijro etadilar. Natijada Yassaviy hayoti, shaxsiyati haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar.

Assotsiatsiya metodi – mulohaza yuritish jarayoniga, barcha o'quvchilar fikrini jalb qilishga, ishtirokchilar emotsional holatiga ta'sir qiluvchi metod. O'quvchilarning har bir guruhiga bo'lajak mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan so'z yoki gap yozilgan plakat



beriladi. Uning pastiga o'quvchilar ana shu so'z yoki gap ularning ko'zlari oldida gavalantiradigan tasavvurlarini yozib qo'yadilar. Masalan: plakatda vertikal yo'nalish bo'yicha tanlangan mavzu bilan bog'liq bo'lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so'zning har bir harfiga ishtirokchilar o'z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar.

Qo'llash bosqichi: darsning kirish qismida.

Qo'llanilishi: O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga "Yassaviy", "hikmat", "tariqat" kabi so'zlar yozilgan plakat beriladi. O'quvchilar har bir harfga o'z taassurotlarini yozadi. Masalan:

Y – yaxshilik

A – axloq

S – sabr

S – so'fiylik

A – Alloh

V – vijdon

I – ilm

Y – yassaviylik

"Matematik loto" metodi – bu metod orqali o'quvchilardan qiziqarli shaklda Ahmad Yassaviy haqidagi bilimlarni so'rab olish mumkin, shuningdek bu metod bilimni mustahkamlash, tezkor fikrlash, jamoaviy ishlash, rag'bat asosida ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodni mavzuni mustahkamlash qismida yoki takrorlashda qo'llasa bo'ladi.

O'yin jihozlari quyidagilar:

- 1 dan 30 gacha sonlar yozilgan 30 ta loto toshlari solingan qopcha;
- Komandalarga beriladigan 6 ta son yozilgan, namunasi pastda keltirilgan 5 ta varaq;
- 10 ta jeton (tanga);
- O'yin mavzusiga doir tuzilgan 30 ta savol.

O'yin qoidalar:

O'yinda 5 ta komanda qatnashadi. Har bir komandaga 6 ta savol nomerlari yozilgan varaqlari tarqatiladi.

O'qituvchi boshlovchi sifatida qopdan loto o'yini toshlarini birin ketin oladi va toshning nomerini e'lon qiladi. Qaysi komanda varag'ida e'lon qilingan tosh nomeri bo'lsa, o'sha komanda javob berish huquqini oladi.

O'qituvchi shu nomerli savolni o'qiydi. Agar komanda savolga to'g'ri javob berilsa, loto toshi unga beriladi. Tosh komanda varaqdagi mos nomer ustiga qo'yiladi. Agar komanda to'g'ri javob bera olmasa, loto toshi boshlovchida qoladi va savolga javob berish boshqa komandalarga o'tadi.

To'g'ri javob bergan komandaga jeton beriladi. Bu jeton bilan xaltachadan chiqqan, lekin boshlovchida qolgan toshni sotib olish mumkin bo'ladi.

Qaysi komanda o'z varag'idagi barcha sonlarni mos loto toshlari bilan birinchi bo'lib yopa olsa, o'sha komanda go'lib deb topiladi.



1-varaq		
1	10	21
27	30	6

2-varaq		
15	3	28
19	22	7

3-varaq		
3	11	26
23	16	13

4-varaq		
25	12	4
29	8	18

5-varaq		
24	17	9
20	5	14

1. VII–X asrlar adabiyoti qaysi yozuv tizimlari asosida rivojlangan?
2. "O'rxun–Enasoy bitiklari" qaysi davr adabiy yodgorligiga kiradi?
3. "Bilga xoqon bitigi", "To'nyuquq bitigi" va "Kultegin bitigi" qanday turdagi asarlar hisoblanadi?
4. "Qutadg'u bilig" asarining muallifi kim?
5. "Qutadg'u bilig" qaysi tilda yozilgan?
6. "Qutadg'u bilig" iborasining ma'nosi nima?
7. Mahmud Koshg'ariyning mashhur asari qanday nomlanadi?
8. "Devonu lug'otit turk" qaysi tilda yozilgan?
9. Ahmad Yassaviy qaysi adabiy yo'nalish asoschisi hisoblanadi?
10. Ahmad Yassaviyning mashhur asari yoki to'plami qanday nomlanadi?
11. Ahmad Yugnakiy qaysi asari bilan tanilgan?
12. "Hibat ul-haqoyiq" so'zining ma'nosi nima?
13. Ahmad Yugnakiy asari qaysi tilda yozilgan?
14. Ahmad Yassaviy qaysi asrlarda yashagan?
15. Ahmad Yassaviy ta'limotining asosiy g'oyasi nimadan iborat?
16. "Devonu lug'otit turk" asari nima maqsadda yozilgan?
17. Mahmud Koshg'ariy asarini qayerda yozgan deb hisoblanadi?
18. Yusuf Xos Hojib qayerda yashagan va ijod qilgan?
19. "Qutadg'u bilig" asarining asosiy g'oyasi nima?
20. VII–XIV asr adabiyotiga xos asosiy xususiyat nima?
21. Tasavvuf adabiyotining asosiy maqsadi nima?
22. Ahmad Yassaviy hikmatlari qaysi tilda yozilgan?
23. Ahmad Yugnakiy asari qaysi janrga mansub?
24. "Qutadg'u bilig" asarida nechta asosiy qahramon orqali g'oya ifodalanadi?
25. Ahmad Yassaviy hikmatlari qaysi shaklda yozilgan?
26. "Qutadg'u bilig"da adolat timsoli kim sifatida keltiriladi?
27. "Devonu lug'otit turk"da nechta turkiy qabila tili namunalari keltirilgan?
28. Ahmad Yassaviy hikmatlari qaysi asardato'plangan?
29. VII–XIV asr adabiyotining asosiy mavzularidan biri qaysi?
30. VII–XIV asr adabiy an'analari keyingi davrda kimlar ijodida davom etgan?



Klassik juftliklar metodi – bu metodni mavzuni mustahkamlash qismida foydalansa bo'ladi. O'quvchilarga mavzuga doir bo'lgan asosiy tushunchalar beriladi, ularning juftliklarini topib aytishlari kerak bo'ladi. Masalan: Ahmad Yassaviy- "Devoni Hikmat", Ahmad Yugnakiy-"Hibbat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojib-"Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariy-"Devonu lug'otit turk" kabi.

Xulosa

Ahmad Yassaviy ijodi tasavvufiy adabiyotning cho'qqisidir. Uning "Devoni hikmat" asari insoniyatni poklikka, komillikka, sabrga da'vat qiluvchi manbadir. Dars davomida taklif qilgan metodlarimiz o'quvchilarni faollashtiradi, qiziqishini orttiradi. Natijada o'quvchilar Yassaviyning hikmatlarini o'rganish bilan bir qatorda ularning zamonaviy hayotdagi ahamiyatini tushunib, o'z shaxsiy hayotlarida foydalana oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.To'xliiev. "Adabiyot o'qitish metodikasi". T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010. 137-b.
2. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. «Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: Nizomiy nomidagiTDPU nashriyoti. 2013. 13-b.
3. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. «Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: Nizomiy nomidagiTDPU nashriyoti. 2013. 35-b.